


Namangan viloyati statistika boshqarmasi

2018 yil yanvar oyida QURILISH ISHLARI


Joriy yilning yanvar oyida viloyatda 108,9 mlrd. so'mlik **qurilish-montaj ishlari** bajarilib, o'sish sur'ati o'tgan yilning shu davriga nisbatan 106,5 foizni tashkil etdi.

Shuningdek, yirik pudrat tashkilotlari tomonidan qurilish ishlari hajmi 4,3 mlrd. so'mni yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan 98,6 foizni tashkil qildi.

2018 yilning yanvar oyida 108,9 mlrd.so'mlik qurilish ishlari bajarilib, shundan yirik pudrat tashkilotlari tomonidan 4,3 mlrd.so'm, kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan 74,9 mlrd.so'mlik qurilish-montaj ishlari bajarilib, o'sish sur'ati o'tgan yilning shu davriga nisbatan 108,1 foizni va norasmiy sektorlar tomonidan esa 29,7 mlrd.so'mlik qurilish ishlari bajarilib, o'sish sur'ati o'tgan yilning shu davriga nisbatan 103,9 foizni tashkil etdi.



2018 yil yanvar oyida shahar va tumanlar kesimida qurilish ishlari hajmining o'sish sur'ati %da




Qurilish hajmining eng yuqori darajasi quyidagi hududlarda kuzatildi:

- Namangan shahrida (29,8 mlrd.so'm yoki 123,5 %) – ko'p qavatli turar-joylar qurilishi, Namangan viloyat pedagog xodimlari malakasini oshirish institutini rekonstruksiya qilish, ijtimoiy sxja ob'ektlarini qurish;
- Norin tumanida (4,6 mlrd.so'm yoki 110,9 %)- Norin daryosi hududida avtomobil yo'llarini kapital ta'mirlash va ko'priq qurilishi hisobiga amalga oshirildi;
- Uychi tumanida (11,7 mlrd.so'm yoki 146,2 %)- Uychi tumanlarida ko'priq qurilishi;

Shu bilan birga, o'tgan yilning mos davriga nisbatan qurilish ishlari hajmining kamayishi Namangan tumanida - 83,6% (13,3 mlrd.so'm), Chortoq tumanida - 66,9% (4,6 mlrd.so'm) qayd etildi.

2018 yilning yanvar oyida qurilish ishlari umumiy hajmida hudularning ulushi
(umumiy hajmga nisbatan %da)



Shahar va tumanlar kesimida qurilish ishlarining katta qismi Namangan shahrida bajarilgan bo`lib, viloyatda bajarilgan jami qurilish ishlarining 27,4 %ini tashkil etdi, Namangan tumanida 12,3 %ni, Uychi tumanida bajarilgan qurilish ishlari esa 10,8 %ni, tashkil etdi.

Viloyatda amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmidagi ulushi bo`yicha past ko`rsatkichlar: Mingbuloq tumanida bu ko`rsatkich eng past 3,1 % ni tashkil etdi. Shuningdek, Uchqo'rg'on tumanida 3,6 %ni , Pop va Chust tumanlarida ushbu ko`rsatkich 5,9 % ni tashkil etganligini kuzatishimiz mumkin.



Qurilish ishlari mavsumining boshlanishi bilan hududlarda bajariladigan qurilish ishlarining hajmi ortib, ularning viloyatdagi ulushi ham o`zgarib boradi.



Mulkchilik shakllari


Mulkchilik shakllari bo'yicha qurilish ishlari

Mulkchilikning nodavlat shaklidagi qurilish tashkilotlari tomonidan 102,9 mlrd.so'mlik qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, jami qurilish ishlari hajmining 94,6 foizini tashkil qildi va ushbu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 0,3 foiz punktga kamaydi.





IQTISODIY FAOLIYAT TURLARI



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish loyihalarini ishlab chiqish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan binolar qurish hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolarni qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi. Fuqarolik obyektlari qurilishi va ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi ham o'tgan yilga nisbatan ko'paygan.